

DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH BOSQICHLARI

Mahkamov Shohruh Sarvar o'g'li

Jizzax politexnika institute

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish

va boshqarish kafedrası, assistenti

karoll19910112@gamil.com

ANNOTATSIYA: Davlat boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bosqichlarinida innovatsiyalarni ikki turga bo'lishimiz mumkin texnologik va tashkiliy qismlardir. Davlat boshqaruvini texnologik innovatsiyaga kiritishimiz maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari innovatsiy, innovatsion sikl, Innovatsion jarayon - bu g'oyaning paydo bo'lishidan to amaliy foydalanishgacha bo'lgan yo'li yoki ilmiy bilimlarni innovatsiyaga aylantirish jarayoni haqida ma'lumotlar berilgan.


KA'LIT SO'ZLARI: Boshqaruv, innovatsiya, texnologiya, Davlat boshqaruvi, innovatsion sikl, ishlab chiqarish.


Boshqaruv texnologiyalari tizimidagi yangiliklari hozirgi zamon olimlari va amaliyotchilarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi, balki o'z navbatida texnologik innovatsiyalar rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, innovatsiyalarning ikki turga "texnologik" va "tashkiliy" qismlarga bo'lishimiz mumkin.

Shuning uchun boshqaruv texnologiyalari tizimidagi va xususan, davlat boshqaruvi texnologiyalari tizimidagi innovatsiyalarni belgilashdan oldin "texnologiya" tushunchasining mazmunini tahlil qilish kerak. Texnologiya (yunoncha techne - san'at, mohirlik, o'quv) - sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar[1]. Shuni inobatga olgan holda texnologiyalar moddiy bo'lishi mumkinligiga e'tiborni qaratish ya'ni mustahkam shaklda mujassamlanadi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, boshqaruv texnologiyalari tizimidagi innovatsiyalarni nomoddiy deb belgilash maqsadga muvofiqdir[50].

Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, tadqiqot mavzusi bilan bog'liq holda innovatsiya tushunchasiga aniqlik kiritamiz. **Innovatsiya** (ing. innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro) - 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuklari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi [2]. Dissertatsiya mavzuimizga bog'lagan holda davlat boshqaruvi texnologiyalari tizimidagi innovatsiyalar deganda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini sifat jihatidan oshirishga qaratilgan normalar, tashkiliy tuzilmalar va boshqaruv jarayonlarida mujassamlangan nomoddiy innovatsiyalar tushunilishi kerak. Shu bilan birga, innovatsiyalar o'sishning yangi sifatiga, boshqaruv tizimida samaradorlikning oshishiga olib keladigan jarayondir.

"Innovatsion sikl" bizning fikrimizcha, innovatsion g'oyaning paydo bo'lishidan boshlab uning tizimli ta'sirga aylanishi va fundamental yangilik sifatida an'anaga aylanishigacha bo'lgan vaqt davridir. Umuman olganda, har bir innovatsion sikl o'ziga xos harakat strukturasi ega bo'lib, u bosqichlar zanjiri, innovatsiyalar orqali o'tadi.





1.1-rasm. Davlat boshqaruvidagi innovatsion sikli

Davlat boshqaruviga kelsak, innovatsion siklning o'ziga xos xususiyatlari bor. Davlat boshqaruvidagi innovatsion siklning iqtisodiyotdagi klassik innovatsion sikldan asosiy farqi shundaki, menejmentdagi innovatsiyalar, qoida tariqasida, mahsulot innovatsiyasi emas, balki tashkiliy va ma'muriy innovatsiyalardir. Bu yerda innovatsiya ob'ekti odatda texnologiya va davlat boshqaruvi jarayonlari hisoblanadi. Shu sababli, davlat tuzilmalarini boshqarishdagi innovatsion siklni 1.1-rasmdagi bosqichlardan iborat qilib ko'rsatish mumkin [3]:

Innovatsion siklning oxirgi bosqichi birinchisi bilan tugaydi va davlat boshqaruvida har doim innovatsiyalarning yopiq siklini shakllantiradi.

Bundan tashqari Innovatsiyalarning asosiy bosqichlarini ham 1.2-rasmda ko'rib o'tishimiz mumkin[4].

Yangi g'oyalar yaratish

- ochiq muhokamalar;
- sovrinlar;
- raqobat va musobaqadoshlik;
- ilg'or xodimlarning va boshqalarning fikrlarini aniqlab olish hamda e'tiborga sazovor g'oyalarni kengaytirishga qaratilgan muntazam jarayonlar.

Kelajakda samara keltiradigan istiqbolli g'oyalarni inkubatsiyalash, prototipini (dastlabki namunasini) yaratish va rivojlantirish

- amaliyotda innovatsion g'oyalarni sinash va baholashga mo'ljallangan bir qator rasmiy vositalar mavjud, jumladan, pilot tadbirlar, tajriba sinovlar va boshqalar.

Replikatsiya (nusxa olish) va kengaytirish

- strategik budjetni belgilash va ish unumdorligini boshqarish juda muhim.

Tahlil qilish va o'rganish


- doimiy baholab borish,
- kutilmagan natija olinganda, tahlil qilish va o'rganish.

1.2-rasm: Innovatsiyalarning asosiy bosqichlari

Bugungi globallashuv jarayonlarida va kuchli raqobat sharoitida har bir mamlakat o'z innovatsion rivojlanish yo'nalishini belgilab olmoqda. Chunki faqat innovatsiyalar mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining garovidir.

Innovatsion jarayon - bu g'oyaning paydo bo'lishidan to amaliy foydalanishgacha bo'lgan yo'li yoki ilmiy bilimlarni innovatsiyaga aylantirish jarayoni hisoblanib uni quyidagi sxema orali ko'rishimiz mumkin.

Tashkilot



1.3-rasm: Innovatsion jarayon bosqichlari⁵

1-bosqich: FT - fundamental tadqiqotlar. vazifasi – Innovatsion nazariyalarni ishlab chiqish.

2-bosqich: AT - amaliy tadqiqotlar. vazifasi - fundamental tadqiqotlar natijalaridan foydalanib qonunlar va qonuniyatlarni tahlil qilib amalyotga joriy qilish.

3-bosqich: ICH -ishlab chiqish. vazifasi - Loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar to'plamini ishlab chiqarish Mualliflik huquqini himoya qilish amalga oshiriladi

4-bosqich: SO' – sinovdan o'tkazish. vazifasi - dizayn xususiyatlarini tekshirish uchun dasturning birinchi namunalari yaratish.

5-bosqich: IR - innovatsiyalarni rivojlantirish. Vazifasi – Boshqaruv organlarini yangi texnologiyani ishlab chiqishga tayyorlash.

6-bosqich: IICH - innovatsiya ishlab chiqarish, IAO - innovatsiyani amalga oshirish. Vazifasi – Sinov uchun amalyotga joriy qilish, ishlab chiqilgan dasturning kamchiligi aniqlash.

7-bosqich: O (I) - operatsiya (iste'mol). Vazifasi - mijozning ishlay olish darajasini o'rganish.

8-bosqich: OI- qayta ishlash. vazifasi - innovatsiyalarning zararli tomonlarini o'rganish va ularni ta'sirini kamaytirishdir.

Iqtisodiy agentlarning tashkiliy va boshqaruv shakllarining tez evolyutsiyasi Buyuk Britaniyada 200 yildan ortiqroq vaqt oldin boshlangan sanoat inqilobiga to'g'ri keladi. Bu davrda sanoati rivojlangan mamlakatlarda sanoat tashkilotlarining turli shakllari yaratildi va tugallandi. Rossiya davlatida boshqaruv texnologiyalari tizimidagi innovatsiyalarning qo'llanilishi 1870 yildan 1920 yilgacha bo'lgan davrda sodir bo'ldi. Qo'shma Shtatlarda va 1950-yillardan 1970-yillarga qadar. Yaponiyada esa davlat boshqaruvi texnologiyalari tizimidagi innovatsiyalarning o'sishi 1980-yillarga to'g'ri kelganini, O'zbekistonda 1992 yilda boshlanganligi va hozirgi kunda keng e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tehnologiya>
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Ermasov N.B, Ermasov S.B «Innovatsionn menedjment: Uchebnik»-M.: Visshee obrazovanie,2007
4. A.T.Murdanova "Innovatsion menejment" o'quv qo'llanma Samarqand-2021

⁵ Muallif tomonidan sxema ko'rinishida tuzilgan